

FESTIVAL G'OLIBLARI ANIQLANDI



FESTIVAL G'OLIBLARI ANIQLANDI

Termiz shahridagi muhtasham San'at saroyida uch kun davom etgan baxshichilik san'ati yo'nalishida baxshi, oqin va jirov ijrochilarining respublika festivali yakunlandi.

Festival doirasida tashkil etilgan baxshi, oqin va jirovlarning respublika ko'rik-tanlovida umumjamo'a hisobida oliy o'rin Qoraqalpog'iston Respublikasi jamoasiga nasib etdi. Birinchi o'rinni Surxondaryo viloyati, ikkinchi o'rinni Xorazm viloyati va uchinchi o'rinni Qashqadaryo viloyati jamoasi qo'lga kiritdi.

Tanlovning yakkaxon yo'nalishlari g'oliblari:

1-o'rin - Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili Azamat Elmuratov, Qashqadaryo vakili Ziyodulla Ahmedov va Surxondaryo vakili Ravshan Mamatmurodov;

2-o'rin - Toshkent shahri vakili Rasulbek Abdurahmonov, Surxondaryo vakili Zulxumor Shernazarova hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili Safargul Bashirova;

3-o'rin – Xorazm viloyati vakili Ximoyat Sariyev, Qashqadaryo vakili Muhammadi Daminov, Qoraqalpog'iston vakili Uldavlet Sersenbayeva, Surxondaryo vakili Xamza Xolboyev egalladi.

G'oliblar diplom, festival statuetkasi va pul mukofotlari bilan taqdirlandi. Shuningdek, "Eng yaxshi doston ijrochisi", "Eng yaxshi terma ijrochisi", "Yosh doston ijrochisi", "Eng yaxshi jirov ijrosi" kabi yo'nalishlar bo'yicha ham g'oliblar aniqlanib, munosib rag'batlantirildi.

Konkurs tanlovning tantanali taqdirlash marosimi san'at ustalari, baxshi, oqin va jirovlarning qiziqarli konsert dasturi bilan yakunlandi.




Image not found or type unknown





Image not found or type unknown

